

f.f.d. X.I.Islomjonova
ToshDSHI turkiy tillar kafedrası professori
Annazarova Tamilla Dilshod qizi
ToshDSHI lingvistika yo‘nalishi,
birinchi bosqich magistranti

PARALINGVISTIK VOSITALARNING GENDER XUSUSIYATIGA OID LINGVOPRAGMATIK TAHLIL

Kalit so‘zlar: *paralingvistika, paralingvistik vositalar, gender, lingvopragmatika, feministik lingvistika.*

Key words: *paralinguistics, paralinguistic means, gender, linguopragmatics, feminist linguistics.*

Ключевые слова: *паралингвистика, паралингвистические средства, гендер, лингвопрагматика, феминистская лингвистика.*

Annotasiya: *Maqolada paralingvistik vositalarning gender hususiyati pragmatik nuqtai nazardan tahlil ostiga olingan bo‘lib, pragmatik tahlilning, gender lingvistikasi va paralingvistikaning tarixiy shakllanishidagi o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqilgan.*

Annotation: *The article analyzes gender peculiarities of paralinguistic means in a pragmatic context and considers the features of pragmatic analysis, the historical formation of gender linguistics and paralinguistics.*

Аннотация: *В статье анализируются гендерные особенности паралингвистических средств в прагматическом контексте и рассматриваются особенности прагматического анализа, историческое формирование гендерной лингвистики и паралингвистики.*

“Pragmatika” – yunonchada “ish”, “harakat” degan ma’nolarni anglatib, nutqdagi til birliklarining funksionalligini o‘rganuvchi semiotika va tilshunoslikning sohasidir. U Sokratdan oldingi davrlarda ham qo‘llanishda bo‘lgan va keyinchalik uni J.Lokk, E.Kant kabi faylasuflar Aristoteldan o‘zlashtirganlar. Shu tariqa pragmatizm oqimi yuzaga kelgan. Bu oqimning asosiy taraqqiyot davri XIX-XX asrlardir. Ayniqsa, XX asrning 20-30- yillarida pragmatizm g‘oyalarining keng targ‘ibi aniq sezila boshladi.¹ Amerika va Yevropada pragmatikaning keng yoyilishida Ch.Pirs, R.Karnap, Ch.Morris, kabilarning xizmatlarini alohida qayd etmoq kerak.

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Amerikada hukmron bo‘lgan falsafiy pragmatizm yo‘nalishining asoschilaridan biri Charlz Pirs edi. Ushbu falsafiy tizimning asosiy g‘oyasi semiotik belgining ma‘no-mazmunini ushbu belgi vositasida bajarilayotgan harakatning samarasi, natijalari, muvaffaqiyati bilan bog‘liq holda o‘rganishdir. Bu tamoyil muallifi Ch. Pirs birinchilardan bo‘lib, belgi nazariyasi doirasida kommunikativ faoliyat subyekti omilini inobatga olish lozimligini uqtirdi.

¹ Ярцева В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь. Москва 1990.

Pragmalingvistika tilshunoslikning mustaqil yo’nalishi sifatida o’tgan asrning 60-70-yillarida shakllandi. 1970- yilda Dordrext shahrida “Tabiiy tillar pragmatikasi”(Pragmatics of natural languages) mavzusida xalqaro konferensiya bo’lib o’tdi. Ushbu anjumanda o’qilgan ma’ruzalar to’plamining muharriri, Tell-Aviv universitetining professori I.Bar – Hillelning “So’z boshi”da qayd qilishicha, anjuman ishtirokchilari yakdillik bilan “Tabiiy til vositasida bajariladigan muloqotning pragmatik xususiyatlari ushbu muloqotning sintaktik va semantik xususiyatlari kabi lingvistik nazariyasi doirasida o’rganilishi lozim”degan xulosaga kelishdi (Vsr-Hilel 1971: V-VI).

Pragmatikaning “Qayta tuzilish davri” deb e’tirof etilgan xuddi shu paytdan boshlab, xorijiy tilshunoslikda haqiqiy pragmatik ko’tarilish yuzaga keldi. Bu mavzuga oid qator anjumanlar, yig’ilishlar o’tkazildi, chop qilinayotgan to’plamlar, ilmiy tadqiqotlarning chegarasi yo’q, Gournal of Pragmatics tom ma’noda xalqaro nashrga aylandi.

Pragmalingvistikaning predmetini aniqlashga ilk bor ahd qilganlardan yana bir tilshunos - G. Klaus bo’lib, pragmatikani “belgilar va ushbu lisoniy belgilarni yaratuvchi, uzatuvchi hamda qabul qiluvchi shaxslar o’rtasidagi munosabatlarni o’rganuvchi” fan sifatida ta’riflaydi.² Ushbu ta’rifdan ko’rinib turibdiki, pragmatikaning predmetini aniqlashda G. Klaus ham boshqa semiotiklar kabi belgi va uni idrok etuvchi interpretator munosabatidan uzoqlashmaydi, hatto uning “pragmatika dastlabki o’rinda lisoniy belgilarning psixologik va sotsiologik tomonlarini o’rganuvchi nazariyadir” degan xulosasi ham pragmatika tushunchasini tor ma’noda tavsiflashdan boshqa narsa emas.

J.Layonz tilshunoslarining 12-xalqaro konferensiyasida (Vena,1977) pragmalingvistikaning predmetini aniqlash va uning ta’rifini berishga harakat qildi:”Pragmatika tinglovchini uzatilayotgan axborotni xuddi so’zlovchi istaganidek qabul qilishga undash maqsadi uchun mos keladigan lisoniy birliklarning kommunikatsiyada qo’llanishini tavsiflaydi.Bu pragmatika lisoniy vositalarning shaxslararo muloqatdagi rolini aniqlash bilan shug’ullanadi, deyish demakdir” (Proceedings 1978: 26). Ushbu ta’rifning asosida lisoniy harakatdagi ko’zlanayotgan maqsad va unga erishish vositasi o’rtasidagi munosabat turibdi .

“Sabab – motiv – maqsad” zanjiri nutqiy faoliyat rejasini shakllantiradi va uning voqelanishini ta’minlaydi. Xuddi shu narsa A.Kasherni pragmalingvistik tahlilning asosiy maqsadini “qo’yilgan maqsadga erishishda lisoniy vositalardan foydalanishni ta’minlovchi insonga xos bo’lgan qobiliyat qoidalarini” yoritish va tushuntirish deb tasvirlashga undaydi. (Kasher 1979: 38)

Pragmalingvistikani tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida ajratish va uning o’zgarish ob’ekti, predmetini aniqlash uchun lisoniy birliklardan turli kommunikativ muhitda pragmatik qiymati, “bahosi”, mundarijasining namoyon bo’lishini taminlovchi omillarni izlamoq darkor. Lisoniy birliklardan har qanday sharoitda namoyon bo’ladigan belgilari ularning ontologik vazifaviy (funksional) xususiyatlari na’munasidir.

² Claus P. Schneider, Anne Baron. Berlin 2014.

Shunday qilib, pragmatikaning umumiy ta’rifini quyidagicha tasavvur qilish mumkin: pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo’lib uning tadqiqot doirasida muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo’llash hamda ushbu qo’llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta’siri masalalari o’rganiladi. Ushbu qoidalar kommunikatsiya shart-sharoitlariga nisbatan, keng ma’nodagi kontekst sifatida o’rganiladi. Lisoniy hodisalarning bu yo’sindagi tahlili ularning qo’llanishidagi u yoki bu muhitda mavjud bo’lgan to’siqlar, chegaralanishlarni ham aniqlashga imkon beradi. Lingvistik tahlilning asosiy g’oyasi ham lisonning tabiatini uning amaliy faoliyatda qo’llanishiga nisbatan yoki boshqacha aytganda, bajarayotgan vazifasi doirasida aniqlashdir. Aynan vazifa (funksiya) tushunchasi lison tahliliga pragmalingvistik yondashuvning poydevoridir. Aminmizki, pragmalingvistikaning xuddi shu yo’nalishdagi taraqqiyoti nazariy tilshunoslik va amaliy kommunikatsiya o’rtasida mavjud bo’lib turgan “uzilish”larni bir oz toraytiradi.

Pragmalingvistika tadqiqot predmetining keng miqyosda tasavvur etilishi ushbu sohaning turli yo’nalishlarda taraqqiy etishini taqozo etadi. Natijada, pragmalingvistikaning nutqiy akt nazariyasi, deysis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika, pragmastilistika kabi o’z “ichki” sohalari yuzaga keldi. Bu sohalarning farqi, birinchi navbatda, pragmalingvistikaning umumiy predmetini alohida qismlarga ajratish va har bir qismning batafsil yoritilishi, o’rganilishida namoyon bo’ladi.

Avvalo shuni ta’kidlash lozimki, matn tushunchasini material jihatdan tayin etish va ta’riflashda mutaxassislar o’rtasida yagona fikr yo’q, aksincha, bir-biriga qarama-qarshi bo’lgan ikki xil qarash mavjud. Ayrim tilshunoslar faqat yozma shakldagi yaxlit nutq yoki nutq parchasini matn deb hisoblaydilar. Masalan, rus tilshunosi L.M.Loseva “matn” tushunchasi aniqlashda barcha matnlar uchun xos bo’lgan belgilardan kelib chiqish lozimligini aytadi va bu belgilarning birinchisi sifatida uning yozma shaklda bo’lishini alohida qayd etadi.⁹⁸ Matnni lingvistik tadqiqot ob’ekti sifatida rus tilshunosligida ilk o’laroq batafsil o’rganganlardan biri I.R.Gal’perin “matnning ontologik va funksional belgilarini namoyon etadigan yetakchi jihatlar”dan biri sifatida “yozma xujjat tarzida reallashadigan tugallanganlik”ni alohida ta’kidlab ko’rsatadi. Uningcha, matn yozuvda qayd etilgan nutqiy asardir.⁹⁹ Ammo matnning yozma yoki og’zakiligi uning ontologiyasi va funksiyasiga nechog’lik bog’liq yoki bog’liq emasligini muallif tomonidan aniq-tiniq ko’rsatib berilmagan. Matnning mohiyati va kommunikatsiya jarayonida baradigan vazifani faqat yozuv bilan chegaralanadigan bo’lsa, bu yirik kommunikativ birlikning tildagi o’rni qanday belgilanishi haqidagi masala ochiq qolgan.

J.Layonz tilshunoslarining 12-xalqaro konferensiyasida (Vena,1977) pragmalingvistikaning predmetini aniqlash va uning ta’rifini berishga harakat qildi:”Pragmatika tinglovchini uzatilayotgan axborotni xuddi so’zlovchi istaganidek qabul qilishga undash maqsadi uchun mos keladigan lisoniy birliklarning kommunikatsiyada qo’llanishini tavsiflaydi.Bu pragmatika lisoniy vositalarning shaxslararo muloqatdagi rolini aniqlash bilan shug’ullanadi, deyish demakdir”

(Proceedings 1978: 26). Ushbu ta’rifning asosida lisoniy harakatdagi ko’zlanayotgan maqsad va unga erishish vositasi o’rtasidagi munosabat turibdi.

“Sabab – motiv – maqsad” zanjiri nutqiy faoliyat rejasini shakllantiradi va uning voqelanishini ta’minlaydi. Xuddi shu narsa A.Kasherni pragmalingsvistik tahlilning asosiy maqsadini “qo’yilgan maqsadga erishishda lisoniy vositalardan foydalanishni ta’minlovchi insonga xos bo’lgan qobiliyat qoidalarini” yoritish va tushuntirish deb tasvirlashga undaydi. (Kasher 1979: 38)

Pragmalingsvistikani tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida ajratish va uning o’zgarish ob’ekti, predmetini aniqlash uchun lisoniy birliklardan turli kommunikativ muhitda pragmatik qiymati, “bahosi”, mundarijasining namoyon bo’lishini taminlovchi omillarni izlamoq darkor. Lisoniy birliklardan har qanday sharoitda namoyon bo’ladigan belgilari ularning ontologik vazifaviy (funksional) xususiyatlari na’munasidir.

Shunday qilib, pragmatikaning umumiy ta’rifini quyidagicha tasavvur qilish mumkin: pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo’lib uning tadqiqot doirasida muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo’llash hamda ushbu qo’llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta’siri masalalari o’rganiladi. Ushbu qoidalar kommunikatsiya shart-sharoitlariga nisbatan, keng ma’nodagi kontekst sifatida o’rganiladi. Lisoniy hodisalarning bu yo’sindagi tahlili ularning qo’llanishidagi u yoki bu muhitda mavjud bo’lgan to’siqlar, chegaralanishlarni ham aniqlashga imkon beradi. Lingvistik tahlilning asosiy g’oyasi ham lisonning tabiatini uning amaliy faoliyatda qo’llanishiga nisbatan yoki boshqacha aytganda, bajarayotgan vazifasi doirasida aniqlashdir. Aynan vazifa (funksiya) tushunchasi lison tahliliga pragmalingsvistik yondashuvning poydevoridir. Aminmizki, pragmalingsvistikaning xuddi shu yo’nalishdagi taraqqiyoti nazariy tilshunoslik va amaliy kommunikatsiya o’rtasida mavjud bo’lib turgan “uzilish”larni bir oz toraytiradi.

Pragmalingsvistika tadqiqot predmetining keng miqyosda tasavvur etilishi ushbu sohaning turli yo’nalishlarda taraqqiy etishini taqozo etadi. Natijada, pragmalingsvistikaning nutqiy akt nazariyasi, deysis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika, pragmastilistika kabi o’z “ichki” sohalari yuzaga keldi. Bu sohalarning farqi, birinchi navbatda, pragmalingsvistikaning umumiy predmetini alohida qismlarga ajratish va har bir qismning batafsil yoritilishi, o’rganilishida namoyon bo’ladi.

Avvalo shuni ta’kidlash lozimki, matn tushunchasini material jihatdan tayin etish va ta’riflashda mutaxassislar o’rtasida yagona fikr yo’q, aksincha, bir-biriga qarama-qarshi bo’lgan ikki xil qarash mavjud. Ayrim tilshunoslar faqat yozma shakldagi yaxlit nutq yoki nutq parchasini matn deb hisoblaydilar. Masalan, rus tilshunosi L.M.Loseva “matn” tushunchasi aniqlashda barcha matnlar uchun xos bo’lgan belgilardan kelib chiqish lozimligini aytadi va bu belgilarning birinchisi sifatida uning yozma shaklda bo’lishini alohida qayd etadi.⁹⁸ Matnni lingvistik tadqiqot ob’ekti sifatida rus tilshunosligida ilk o’laroq batafsil o’rganganlardan biri I.R.Gal’perin “matnning ontologik va funksional belgilarini namoyon etadigan yetakchi jihatlar”dan biri sifatida “yozma xujjat tarzida reallashadigan

tugallanganlik”ni alohida ta’kidlab ko’rsatadi. Uningcha, matn yozuvda qayd etilgan nutqiy asardir.⁹⁹ Ammo matnning yozma yoki og’zakiligi uning ontologiyasi va funksiyasiga nechog’lik bog’liq yoki bog’liq emasligini muallif tomonidan aniq-tiniq ko’rsatib berilmagan. Matnning mohiyati va kommunikatsiya jarayonida baradigan vazifani faqat yozuv bilan chegaralanadigan bo’lsa, bu yirik kommunikativ birlikning tildagi o’rni qanday belgilanishi haqidagi masala ochiq qolgan.

Pragmatikaning umumiy ta’rifini quyidagicha tasavvur qilish mumkin: pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo’lib, uning tadqiqot doirasida muloqot jarayonida **lisoniy va nolisoniy birliklarni** tanlab olish, ularni qo’llash hamda ushbu qo’llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta’siri masalalari o’rganiladi.³

Nolisoniy, ya’ni, paralingvistik birliklardan ham foydalanish va ularni lingvistik tadqiqot doirasiga kiritish g’oyalari Praga strukturalizm maktabi vakillari tomonidan ilgari surilgan.⁴ Yartseva V.N.ning lingvistik ensiklopedik lug’ati (Moskva, 1990) ga muvofiq paralingvistika nutqiy vositalar bilan birga, ma’naviy axborot uzatuvchi noverbal (nonutqiy) vositalarni o’rganuvchi tilshunoslikning bo’limidir.⁵ “Paralingvistika” lotin tilidan olingan bo’lib, “tilga yondosh”, “til bilan birga qo’llanuvchi” degan ma’noni ifodalaydi.⁶ Keyinchalik J.Treyger o’zining tadqiqotlarida uning mohiyatini, substantsiyasini (fanning predmeti, vazifasi, o’rganiladigan hodisalar mohiyati va boshqalar) belgilab berdi.⁷

Paralingvistikaning quyidagi jihatlari tilshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilgan:

- Paralingvistikaning nazariy jihatlari, turlariga ko’ra tavsiflanishi;
- Matnda aks etuvchi paralingvistik vositalar birliklari;
- Matnda ta’riflash yordamida aks etuvchi paralingvistik vositalar va h.k.;

Zamonaviy tilshunoslikda paralingvistik vositalarning uch turi belgilangan: fonatsion, kinestetik va grafik. Fonatsion paralingvistik vositalarga **tovush tembri, tezligi, baland-pastligi, pauzalar o’rnini to’ldiruvchi tovushlar va nutqni to’ldiruvchi boshqa melodik hodisalar, talaffuzdagi dialektik, idialektik va ijtimoiy o’ziga xosliklar** kiradi. Kinestetik komponentlarga **imo-ishora, qo’l harakatlari, jest, nutq davomidagi pozitsiya yoki jimlik** va boshqalar kiradi. Grafik komponentga esa **nutqning matn ko’rinishida, so’z, tushuncha, atama, ibora kabi matn elementlariga ur’g’u berishga yordam beruvchi grafik shakllar** va boshqalar kiradi. Paralingvistik vositalar nutqda qo’shimcha ma’no kasb etibgina qolmay, balki so’zlovchi, uning yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, xarakter xususiyatlari haqida ma’lumot beruvchi manba deb ham qaraladi.

Ba’zi olimlar kishilar o’zaro aloqaning dastlabki davrlarida, ya’ni o’zaro munosabatlarning shakllanishi paytlarida paralingvistik vositalardan foydalanganlar, tovush tiliga ega bo’lgan kishilar uchun paralingvistik vositalar o’zaro aloqa jarayonida doimo yordamchi vosita vazifasini o’tagan deb ta’kidlaydilar.⁸

³ Nurmonov A. Hakimov M. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi. O’zbek tili va adabiyoti. 2001

⁴ Yuldashev N. Paralingvistika. Nukus 2011.

⁵ Ярцева В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь. Москва 1990.

⁶ Yuldashev N. Paralingvistika. Nukus 2011.

⁷ G. Trager. Paralanguage a First. Approximation. “Studies in Linguistics” 1958, №13

⁸ Nurmonov N. A. O’zbek tilining paralingvistik vositalari. Andijon 1980.

Nutq jarayonida til vositalari bilan bir qatorda noverbal vositalardan ham foydalanish va ularni lingvistik tadqiqot doirasiga kiritish g’oyalari Praga strukturalizm maktabi vakillari tomonidan ilgari surilgan. Jumladan, **R. Yakobson (1996), O. Sovajo (1962, 1972), R. Bart (2001), K. Blansh-Benvenist (1987), N.I. Jinkin (1982, 1998), Y.A. Zemskaya (1981), G.V. Kolshanskiy (1974)** kabi olimlar faoliyatida o’z aksini topgan bo’lib, ayniqsa, Amerika va nemis tilshunoslari faoliyatida ham alohida diqqat va tadqiqotlarga sabab bo’lgan. Shular qatorida **Birdwhistell R.L. (1964); Efron D. (1941); Ekman P. Friesen W.; Hall E.; Key M.R.; Poyatos F.; Scherer.; Trager G.L.** lar paralingvistikaning alohida bir ko’rinishi emas, balki uning jamiyatga, insonlar o’rtasidagi munosabatga ta’siri tadqiqotlariga bag’ishlangan. Shu tariqa paralingvistikani sotsiolingvistika bilan o’zaro bog’liqligini tadqiq etganlar.

Paralingvistik vositalar og’zaki nutqgagina hos hodisa bolib, yozma nutqda ular til birliklari yordamida muallifning o’ziga hos talqini ta’rida ta’riflanadi. Shu nuqtai nazardan ularni quyidagicha tavsiflash mumkin:

Birinchidan, nutqda til birliklari orqali paralingvistik vositalarning qo’llanishini tadqiq qilishga bag’ishlangan ilmiy ishlar; ikkinchidan, paralingvistik vositalarning bevosita matnda ishtiroki tadqiqiga bag’ishlangan ilmiy ishlar. Adanakova V.I. (Smolensk:1988.), Andrianov M.S. (1995), Antipova A.M. (Moskva: 1989) va Apresyan V.Yu. (1993) lar paralingvizmlarning nutqda hosil bo’lish jarayonining ilmiy tahlilini olib borgan bo’lsalar, Vereshyagin Ye.M. Kostomarov V.G. (1981), Velip V. (1998), Vinarskaya V.N. (1989) va boshqalar ularning matnda aks etish muammosini tahlil ostiga olgan.

Tilshunoslik tarixining keyingi davrlarida paralingvistik vositalar turli Yevropa tillari va turli yondashuvlar nuqtai nazaridan keng o’rganilgan. Noverbal vositalarni alohida tizim sifatida o’rganishga qiziqish paralingvistikaning fan sifatidagi shakllanishiga sabab bo’ldi. Shuning uchun noverbal vositalarni o’rganuvchi tilshunoslikning sohasi turlicha nomlar bilan atalgan. So’nggi paytlarda ekstralingvistika bilan paralingvistika bir-biridan ajratilyapti. Masalan, A. S. Axmanova tilshunoslikni “mikrolingvistika” termini bilan ifodalab “mikrolingvistika” ni “paralingvistika”, “mikrolingvistika”, “mentalingvistika” kabi sohalarga ajratib ko’rsatadi va paralingvistikaning til ifodasining fizik tabiati va mohiyati bilan shug’ullanishini ta’kidlaydi.⁹ Mazkur muammo turk tilshunosligida yevropa tilshunosligidan farqli o’laroq atroflicha o’rganilmagan. Quyida turk tilshunosligida ushbu sohaga bag’ishlangan sanoqli ishlarni ko’rib chiqamiz.

Akademik N. K. Dmitriyevning “Строй тюркских языков” deb nomlanuvchi ilmiy ishida ta’kidlanishicha turkiy til mimologiya va hatti-harakatlari tilini o’rganish professor N. I. Ashmarinning 1918-yil Qozonda chop etilgan “Основы чувашской мимологии” deb nomlanuvchi ishidan boshlanadi.¹⁰ Paralingvistikaning chuqur ilmiy nazariy asoslari tadqiqiga bag’ishlangan ishlar turkiy til nuqtai nazaridan qoraqalpoq tilshunos olimi N. Yo’ldoshev, o’zbek tilshunos olimi N.A.

⁹ О.С.Ахманова. О точных методах исследования языка. М.:1961

¹⁰ Магжан Сауле. Виды парадействий в языке и исследование невербальных элементов в языкознании. // Успехи современного естествознания. -2012. № 2. –С. 102-106.

Nurmonovlarning ilmiy faoliyatida ham o‘z aksini topgan bo‘lsa, uning ma’um bir sohalari tadqiqiga bag‘ishlangan ishlar X.K.Imomova ishlarida atroflicha o‘rganilgan.

Quyidagi tadqiqot ishimiz paralingvistik vositalarning gender nuqtai nazaridan o‘ziga hosliklarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Tilda gender belgilarning mustahkamlanishi, madaniyat va jamiyat ta’sirida gender stereotiplarning shaxs nutqi va sotsiallashtiruvchi ham namoyon bo‘ladi. So‘zlashuvchi (kommunikant) larning funksiyasi va hayot tarzida madaniyat o‘z aksini topib, ular asosida mazkur jamiyatga hos stereotiplar shakllanadi. Paralingvistik birliklar nutqning deyarli ajralmas qismi bo‘lgani bois, kommunikantlarning noverbal nutqida ham gender stereotiplar mustahkamlanishini kuzatish mumkin. G.Ye.Kreydlinning fikriga muvofiq, gender hususiyatlarning o‘xshashligi yoki almashib ketishi odatda “qat’iy ierarxik modelning yo‘q bo‘lib ketishi, normadan chetga chiqish yoki doimiy ijtimoiy qoidalarga tahdid” hisoblanadi.¹¹ Zamonaviy jamiyat hozirgi kunda ikki jinsning alohida o‘zgarmas deb hisoblangan hususiyatlarini o‘zgartirib yubormoqda.

Gender – ijtimoiy-madaniy element sifatida diqqat markazida bo‘lgan tadqiqotlar gumanitar fanlarning nisbatan yangi yo‘nalishi bo‘lib, unga ko‘ra ma’lum bir shaxsga uning jinsiy oidligi nuqtai nazaridan kelib chiqib, jamiyatda o‘zini tutish normalarini belgilashni o‘rganadi. Gender tushunchasi erkak va ayollarning psixologik, ijtimoiy va madaniy o‘ziga xos xususiyatlarini nazarda tutadi. Insoniyatning uzoq yillik evolyutsiyasi jarayonida bu ikki qarama-qarshi jins o‘ziga xos bo‘lgan umumiylik hamda farqlarga ega bo‘lib bordi. Natijada ayol va erkakni bir-biridan farqlovchi va umumlashtiruvchi xususiyatlar tizimi shakllandi. Gender erkaklar va ayollar aynanligi va xulq-atvordagi tafovutni nazarda tutadi.

Tilshunoslikda gender tadqiqotlarining tashkil topishi va rivojlanishi XX asrning so‘nggi o‘n yilliklariga to‘g‘ri keladi.¹² XX asrning ikkinchi yarmiga kelib yangi ijtimoiy-falsafiy qarashlarning hosil bo‘lishi bilan bir qatorda g‘arbda jamiyatning demokratlashuv jarayoni ham yuz bergan. 1968-yilda talabalar inqilobi, feminizmning faollashuvi bir qator yangi qarashlarning shakllanishiga sabab bo‘ldi. Bu qarashlar qatoriga jinsiy oidlik va genderning ijtimoiy-madaniy hodisalardagi ahamiyatini anglash ham kiradi. XX asrning 60-yillari oxirida asosan AQSh va Germaniya tilshunosligida tilning feministik tanqidi yoki *feministik lingvistik* nomini olgan yangi yo‘nalish yuzaga keladi. Ushbu yo‘nalish hozirgi kunda ham mavjud bo‘lib, hozirda radikal qarashlardan holi mo‘tadil tus olgan.

Gender lingvistikasining dolzarb muammolaridan biri gender munosabatda pragmatik o‘xshatish, pragmatik shakldoshlik, pragmatik ma’nodoshlik, pragmatik ziddoshlik kabi hodisalar tadqiqi hisoblanadi.

Gender hususiyatlarni o‘zida aks ettirgan paralingvistik vositalarning lingvopragmatik tahlili esa mazkur noverbal vositalarning gender hususiyatlarining

¹¹ Крейдлин Г.Е. Мужчины и женщины в невербальной коммуникации: культурноуниверсальные и культурно-специфичные особенности невербального коммуникативного поведения // Материалы Третьей международной конференции 27–28 ноября 2003. Гендер: Язык, Культура, Коммуникация. М.: МГЛУ, 2003.

¹² Смит С. Постмодернизм и социальная история на западе: проблемы и перспективы // Вопросы истории. 1997.

№ 8. С. 154–161.

oʻziga hos jihatlarni “avtor-adresant-adresat” mutanosibliqida tahlil qilib, tushunishga imkon beradi. Lisoniy hodisalarning bu yoʻsindagi tahlili ularning qoʻllanishidagi u yoki bu muhitda mavjud boʻlgan toʻsiqlar, chegaralanishlarni ham aniqlashga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Claus P. Schneider, Anne Baron. Berlin 2014.
2. Trager G. Paralanguage a First. Approximation. “Studies in Linguistics” 1958, №13
3. Nurmonov A. Hakimov M. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi. O'zbek tili va adabiyoti. 2001
4. Nurmonov N. A. O'zbek tilining paralingvistik vositalari. Andijon 1980.
5. Yuldashev N. Paralingvistika. Nukus 2011.
6. Ахманова. О.С.О точных методах исследования языка. М.:1961
7. Крейдлин Г.Е. Мужчины и женщины в невербальной коммуникации: культурноуниверсальные и культурно-специфичные особенности невербального коммуникативного поведения // Материалы Третьей международной конференции 27–28 ноября 2003. Гендер: Язык, Культура, Коммуникация. М.: МГЛУ, 2003.
8. Магжан Сауле. Виды парадействий в языке и исследование невербальных элементов в языкознании. // Успехи современного естествознания. -2012. № 2. –С. 102-106.
9. Смит С. Постмодернизм и социальная история на западе: проблемы и перспективы // Вопросы истории. 1997. № 8. С. 154–161.
10. Ярцева В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь. Москва 1990.